

MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILAR UCHUN DAVRA SUHBATI: “MAKTAB BIZNI KUTMOQDA!”

Davra suhbatining maqsadi:

- Bolalarda maktabga nisbatan qiziqish va havas uyg‘otish.
- Maktab haqida boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirish.
- Bolalarni odobli, intizomli va bilim olishga intiluvchan bo‘lishga o‘rgatish.

Kerakli jihozlar:

- Harf va raqamlar kartochkalari;
- Maktab rasmi yoki plakat;
- Mavzuga oid she‘r va rasmlar;

Kutilayotgan natijalar:

- Bolalarda maktabga borishga qiziqish paydo bo‘ladi.
- Maktab jihozlarini ajrata oladilar.
- Maktabdagi odob-axloq qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.
- O‘z fikrlarini erkin bayon qilishga harakat qiladilar.
- Bilim olishning ahamiyatini tushunib yetadilar.

Kirish qism

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Bugun biz sizlar bilan juda muhim bir mavzu haqida suhbatlashamiz!

Bolajonlar, bog‘chaga chiqib qanchalik foydali bilimlarga ega bo‘ldingiz, to‘g‘rimi?! Harflarni tanidingiz, raqamlarni sanashni, she‘rlarni ifodali o‘qishni, chiroyli rasmlar chizishni, raqsga tushishni va qo‘shiqlar kuylashni o‘rgandingiz. Shu bilan birga, salomlashish, kiyinish, so‘zlashuv odobini, kattalarni hurmat qilishni, do‘stlashishni, yaxshi va yomon odatlarni bir biridan farqini bildingiz! Bilasizmi, bolajonlar, mana shu o‘rgangan bilimlaringiz sizga qayerga borganingizda juda ham kerak bo‘ladi?

Diqqatingizni mana bu rasmlarga qaratamiz! Rasmda nimalarni ko‘ryapsizlar?

1



2



3



Bolalar javobi tinglanadi.

Tarbiyachi: Albatta, maktab, sinfxona va maktab o'quvchilarining suratlari edi!

Bolajonlar, aytinglar-chi, nima uchun maktabga boramiz?

Bolalar javobi tinglanadi.

Tarbiyachi: Odobli va bilimli bo'lishimiz uchun. Aqlli odam qanday bo'ladi?

Bolalar javobi tinglanadi.

Ha, aqlli inson kitob o'qiydi, yozishni va sanashni biladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar maktabda eng asosiysi ustozni hurmat qiling va diqqatli bo'lib darsni tinglang! Agar dars vaqtida o'yinqaroq va sho'xlik qilsangiz, o'zingiz va do'stlaringizni bilim olishida xalaqit qilgan bo'lasiz.

Didaktik o'yin

O'yin qoidasi. Bolalar tarbiyachi tomonidan ko'rsatilgan maktab sumkasiga qanday buyumlar joylanishini to'g'ri ekanligini topishi kerak bo'ladi.




Bolalar navbat bilan javob beradilar va maktab sumkasiga namuna sifatida ko'rsatilgan rasmdagi buyumlardan mos va to'g'ri deb hisoblaganlarini birma-bir joylaydilar.

1



2



3



4



5



6



Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar. Endi esa sizlarga bir she'r o'qib beraman.

Xayr bog'chajon

Dilshod RAJAB

Aziz bog'cha opalar,
Oshpaz, farrosh xolalar,
Mehringizdan kuch olib
Ulg'aydik biz bolalar.

Endi yetti yoshdamiz,
Maktabjonga shoshamiz.
Unutmaymiz lekin hech
Bu qadrdon bog'chamiz.

Erkalanib bag'rida,
To'ydik o'yin zavqiga.
Harflarni ham o'rgandik,
Ming-ming rahmat bariga!

Xayr, xayr bog'chajon,
Xayr, bog'cha opajon.
Quyosh kabi mehringiz
Qalbimizda har qachon.

Tarbiyachi: Qalay, bolajonlar, she'r sizlarga yoqdimi?

Endi esa video ko'ramiz. Hozir siz kabi bog'chani bitirib maktabga chiqayotgan bolalar "Quvnoq harflar" o'yinini o'ynashadi. Kelinglar, birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

"Quvnoq harflar"

<https://youtu.be/RAyHbef39kE>

Xulosa

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar! Maktab bizni odobli, intizomli va mehribon bo'lishga o'rgatadi. U yerda ustozlarning nasihatlarini tinglaymiz, do'stlar orttiramiz va yaxshi xulqni o'rganamiz. Agar inson bilimli bo'lsa, kelajakda yaxshi kasb egasi bo'ladi. Shifokor, ustoz, uchuvchi, quruvchi yoki boshqa kasblarni egallash uchun avval maktabda yaxshi o'qish kerak. Maktab bizga orzu qilishni, izlanishni va Vatanimizga foydali inson bo'lib ulg'ayishni o'rgatadi. Shuning uchun sizlar ham maktabga quvonch bilan borib, bilim olishga harakat qilishingiz kerak.

Maktab sizni kutmoqda, aziz bolajonlar!